


21-Mavzu. Matnli masalalar

- Do‘konda 478 kg kartoshka bor. Birinchi kuni 129 kg, ikkinchi kuni undan 45 kg ko‘p kartoshka sotildi. Do‘konda qancha kartoshka qoldi?
A) 175 B) 179 C) 165 D) 169
- Do‘konda 549 kg olma bor. Birinchi kuni 129 kg, ikkinchi kuni undan 64 kg ortiq olma sotildi. Do‘konda qancha olma qoldi?
A) 227 B) 226 C) 237 D) 236
- Qutiga yana 175 dona shokolad solingandan so‘ng undagi jami shokoladlar soni 224 donaga yetdi. Dastlab qutida nechta shokolad bo‘lgan?
A) 49 B) 399 C) 81 D) 151
- Karimda 18 ta daftar, Salimda undan 4 marta ko‘p daftar bor. Ikkalasida jami nechta daftar bor?
A) 72 B) 100 C) 84 D) 90
- Javlonda 74 ta daftar, O‘ktamda undan 2 marta kam daftar bor. Ikkalasida jami nechta daftar bor?
A) 101 B) 111 C) 121 D) 99
- Quyidagi jadvalda berilgan ma‘lumotlardan foydalanib, qaysi yog‘ qolgan yog‘larga nisbatan arzon (so‘m/litr) ekanligini aniqlang.

Turi	Hajmi	Narxi
Zig‘ir	1 litr	11000 so‘m
Kunjut	0,9 litr	10000 so‘m
Zaytun	1,8 litr	19000 so‘m
Paxta	2 litr	20000 so‘m


- A) Zig‘ir B) Kunjut C) Zaytun D) Paxta

- Quyidagi grafik asosida to‘g‘ri ma‘lumotni toping.



- A) 50-kuni 750 ta mahsulot sotilgan B) 60-kuni 850 ta mahsulot sotilgan
C) 70-kuni 800 ta mahsulot sotilgan D) 80-kuni 700 ta mahsulot sotilgan

8. Diagrammada maktabning yuqori sinflaridagi a'lochi o'quvchilar soni keltirilgan. Diagrammadan foydalanib, 11-A sinfdagi a'lochi o'quvchilar soni 10-A sinfga qaraganda nechtaga kamligini aniqlang.



- A) 1 B) 4 C) 5 D) 8

9. Xaridning umumiy to'lovi (ming so'm) topilsin.

Nomi	Narxi (so'm)	Soni
Daftar	2000	9
Qalam	800	12
Albom	3000	1
Ruchka	1000	2
Chizg'ich	1400	1

- A) 33 B) 34 C) 32 D) 35

10. Kamoliddin bir son o'yladi. Uni 5 ga ko'paytirib, 23 ni ayirgan edi, 17 qoldi. Kamoliddin qanday son o'ylagan?

- A) 8 B) 20 C) 40 D) 50

11. Biror sonni 2 ga bo'lsa, bo'linma berilgan sondan 4 taga katta chiqadi. Berilgan sonni toping.

- A) 4 B) 6 C) 8 D) -8

12. Raqamlari yig'indisining to'rtlanganiga teng barcha ikki xonali natural sonlar nechta?

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 8 ta

13. Raqamlari yig'indisining yettilanganiga teng barcha ikki xonali sonlar yig'indisini toping.
A) 180 B) 200 C) 210 D) 240
14. Uch xonali sondan uning teskari tartibda yozilgani ayirilsa, 198 hosil boladi. Shu shartni qanoatlantiruvchi barcha uch xonali natural sonlar nechta?
A) 64 ta B) 48 ta C) 63 ta D) 70ta
15. Agar ABC, ACB va BCA uch xonali sonlar bo'lib, $ABC+ACB=BCA$ tenglik bajarilsa, $A+B+C$ ni toping.
A) 15 B) 16 C) 17 D) 18
16. Birlar xonasidagi raqamining kubiga teng barcha uch xonali sonlar nechta ?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 0
17. $\overline{ab} + \overline{bc} + \overline{ca} = \overline{abc}$.bo'lsa, $a \cdot b \cdot c = ?$
A) 72 C) 56 D) 60 D) 90
18. Ikki xonali natural sonni raqamlari yig'indisiga ko'paytirsa 160 bo'ladi, teskari tartibda yozilganining raqamlari yig'indisiga ko'paytirganda esa 115 ga teng bo'ladi. Shu ikki xonali sonning nechta natural bo'luvchisi bor?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
19. Agar ikki xonali sonni raqamlari yig'indisiga bo'lsak, bo'linma 6 va qoldiq 5 chiqdi. Agar raqamlari ko'paytmasiga bo'lsak, u holda bo'linma 3 va qoldiq 8 chiqdi. Shu ikki xonali sonni 10 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
20. 1 dan 100 gacha sonlar ketma-ket yozilsa, hosil bo'lgan ko'p xonali sonda 5 raqami necha marta uchraydi?
A) 10 B) 18 C) 19 D) 20
21. a sonini 5 ga bo'lganda 1 qoldiq, 3 ga bo'lganda esa 2 qoldiq hosil bo'lishi ma'lum bo'lsa, a ni 15 ga bo'lganda hosil bo'lgan qoldiqni toping.
A) 11 B) 13 C) 7 D) 9
22. Uchta sonning o'rta arifmetigi 5 ga, boshqa beshta sonning o'rta arifmetigi 3 ga teng. Shu sakkizta sonning o'rta arifmetigi nechaga teng?
A) 3,25 B) 3,5 C) 3,75 D) 4

23. 1 dan boshlab nechta toq son qo‘shilsa, ularning o‘rta arifmetigi 100 ga teng bo‘ladi?
A) 99 ta B) 199 ta C) 100 ta D) 200ta
24. O‘nta sonning o‘rta arifmetigi 48 ga teng. Ularga bitta son qo‘shilsa ularning o‘rta arifmetigi 50 ga teng bo‘ladi. Qo‘shilgan sonni toping.
A) 50 B) 60 C) 70 D) 80
25. a ta sonning o‘rta arifmetigi b ga, boshqa b ta sonning o‘rta arifmetigi a ga teng. Shu $(a + b)$ ta sonning o‘rta arifmetigini toping.
A) $\frac{ab}{a+b}$ B) $\frac{2ab}{a+b}$ C) $\frac{a+b}{ab}$ D) $\frac{a-b}{a+b}$
26. a ta sonning o‘rta arifmetigi 10 ga, boshqa b ta sonning o‘rta arifmetigi 20 ga, boshqa c ta sonning o‘rta arifmetigi esa 30 ga teng. Shu $(a + b + c)$ ta sonning o‘rta arifmetigini aniqlang.
A) $\frac{10a+20b+30c}{abc}$ B) $\frac{a+b+c}{10a+20b+30c}$ C) $\frac{10a+20b+30c}{a+b+c}$ D) $\frac{10a+20b+30c}{a+2b+3c}$
27. Ikki sonning o‘rta arifmetigi ularning kattasidan 7 ga kam. Ularning kattasi kichigidan nechaga ortiq?
A) 7 B) 10 C) 21 D) 14
28. Ikki son o‘rta arifmetigining o‘rta geometrigiga nisbati 5:4 kabi. Shu sonlardan kattasining kichigiga nisbati qancha ?
A) 2 B) 4 C) 8 D) 12
29. Futbolchilar komandasi 11 kishidan iborat bo‘lib, o‘rtacha yoshlari 22 ga teng. O‘yin paytida bir futbolchi qizil kartochka olib o‘yindan chiqarib yuborildi. Qolgan futbolchilarning o‘rtacha yoshlari 21 ga teng bo‘ldi. O‘yindan chiqqan futbolchining yoshi nechada edi?
A) 32 B) 24 C) 27 D) 18
30. 3; y ; 2,1 va 2,1 sonlarining o‘rta arifmetigi 2,55 ga teng. y ni toping.
A) 2,1 B) 2,6 C) 2 D) 3
31. Ikki sonning o‘rta arifmetigi 3,75 ga, o‘rta geometrigi esa 3 ga teng. Shu sonlar kattasining kichigiga nisbatini toping.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
32. 21, 28, 49, 56 va a sonlarining o‘rta geometrigi 42 bo‘lsa, a ning qiymatini hisoblang.
A) 56 B) 72 C) 81 D) 48

33. Kitob betlarini sahifalash uchun 4039 ta raqam ishlatildi. Agar sahifalash 3-betdan boshlangan bo‘lsa, kitob necha betlik?
A) 1287 B) 1288 C) 1281 D) 1290
34. $4\frac{1}{2}$ ning $\frac{2}{3}$ qismini toping.
A) 3 B) $4\frac{1}{3}$ C) $3\frac{5}{6}$ D) $6\frac{3}{4}$
35. $\frac{5}{7}$ qismi 4 ga teng bo‘lgan sonni toping.
A) $5\frac{6}{7}$ B) $5\frac{1}{5}$ C) $5\frac{2}{3}$ D) $5\frac{3}{5}$
36. Uzunligi 6 m bo‘lgan matoni har biri $\frac{2}{3}$ m dan qilib bo‘laklarga ajratsak nechta bo‘lak hosil bo‘ladi?
A) 9 B) 4 C) 7 D) 6
37. Axror kitobning $\frac{11}{17}$ qismini, Baxtiyor $\frac{12}{17}$ qismini, Doniyor esa $\frac{10}{17}$ qismini o‘qigan. Ulardan qaysi biri kitobning ko‘proq qismini o‘qigan?
A) Doniyor B) Axror C) Baxtiyor D) ular teng qismda o‘qigan
38. Birinchi kuni ish normasining $\frac{1}{4}$ qismi bajarildi. Ikkinchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning $\frac{1}{8}$ qismicha ko‘p ish bajarildi. Shu ikki kunda qancha ish normasi bajarilgan?
A) $\frac{9}{32}$ B) $\frac{5}{32}$ C) $\frac{3}{40}$ D) $\frac{17}{32}$
39. Birinchi kuni ish normasining $\frac{1}{5}$ qismi, 2-kuni qolganining $\frac{1}{4}$ qismi, 3-kuni qolganining $\frac{1}{3}$ qismi, 4-kuni qolganining $\frac{1}{2}$ qismi bajarildi. Ishning qancha qismi bajarilmay qoldi?
A) $\frac{1}{5}$ B) $\frac{2}{5}$ C) $\frac{3}{5}$ D) $\frac{4}{5}$
40. Ma’lum ishni ikkala ishchi birga 6 kunda bajaradi. $\frac{2}{5}$ qismini 1-ishchi, $\frac{3}{5}$ qismini 2-ishchi bajarsa, 13 kun ketadi. 2-ishchinig o‘zi shu ishni necha kunda bajaradi?
A) 10 yoki $12\frac{1}{5}$ B) 15 yoki $8\frac{2}{3}$ C) 12 yoki $8\frac{1}{3}$ D) 9 yoki $15\frac{1}{3}$
41. $12\frac{3}{4}$ sonini 6;7;4 sonlariga proporsional bo‘laklarga bo‘lgandagi eng kichik sonni toping.
A) 3 B) 4 C) 5 D) 3,5

42. 150 sonini $2; \frac{2}{5}; \frac{1}{2}$ sonlariga teskari proporsional bo‘laklarga bo‘ling.
A) 15;76;59 B) 15;75;60 C) 14;76;60 D) 15;74;61
43. Fermer dehqon 3 va 4 sonlariga proporsional yerga bug‘doy va sholi, 5 va 6 sonlariga proporsional yerga sholi va paxta ekdi. Agar paxta maydoni 60 gektar bo‘lsa, bug‘doy qancha gektar yerga ekilgan?
A) 32 B) 37,5 C) 34,5 D) 42,5
44. To‘rtta sonning yig‘indisi 310 ga teng. Ulardan dastlabki uchta 5, 6 va 12 sonlariga to‘g‘ri proporsional, uchinchi va to‘rtinchi sonlar 8 va 12 sonlariga teskari proporsional. Ikkinchi sonni toping
A) 50 B) 45 C) 60 D) 55
45. 1792 soni uchta qo‘shiluvchiga shunday ajratilganki, ulardan dastlabki ikkitasi 5 va 6 sonlariga to‘g‘ri proporsional, oxirigi ikkitasi esa 2 va 7 sonlariga to‘g‘ri proporsional. Birinchi sonni toping.
A) 1176 B) 1344 C) 280 D) 336

Kalitlar

1.	A	16.	C	31.	C
2.	A	17.	A	32.	C
3.	A	18.	D	33.	A
4.	D	19.	C	34.	A
5.	B	20.	D	35.	D
6.	D	21.	A	36.	A
7.	C	22.	C	37.	C
8.	A	23.	C	38.	D
9.	B	24.	C	39.	A
10.	A	25.	B	40.	B
11.	D	26.	C	41.	A
12.	C	27.	D	42.	B
13.	C	28.	B	43.	B
14.	D	29.	A	44.	C
15.	D	30.	D	45.	C